

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar bo'yicha 2024 yil 17-18 may kunlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti negizida bo'lib o'tgan **"Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish"** nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

## **HISOBOTI**

### **1. Anjuman mavzusi:**

"Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish",

"Антропогенное ландшафтоведение: методы исследования, модернизация и устойчивое развитие",

"Anthropogenic Landscape Science: Research Methods, Modernization and Sustainable Development"

### **2. Anjuman maqomi:** Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman

**3. Ilmiy va ilmiy-texnika anjumanni o'tkazish uchun asos bo'lgan O'zR Prezidenti farmoni, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug'i asos bo'ladi.

### **4. Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari:**

Anjumanning ilmiy yo'nalishi quyidagilardan iborat:

- ❖ Antropogen landshaftshunoslik tadqiqotlarda GIS texnologiyalari va innovatsiyalarni qo'llash;
- ❖ Antropogen landshaftlarni tadqiq etishda zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar;
- ❖ Global iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslaridan foydalanish va landshaftlar modernizatsiyasi;
- ❖ Atrof-muhit monitoringi va landshaftlar ekologiyasi.

**Maqsadi:** O'zbekiston Respublikasi va boshqa xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan geografik tadqiqotlarning nazariyasi, tajribalari, dolzarb muammolari va istiqbolli yo'nalishlarini muhokama qilish, geografik tadqiqotlarda innovatsion yondashuvlar borasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, iqtidorli yosh olimlarni istiqbolli ilmiy yo'nalishlarga jalb qilishdan iborat.

*Vazifalari:* O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan antropogen landshaftshunoslik tadqiqotlariga bag'ishlangan nazariyalar va metodlarni o'rganish ularni amaliyotga joriy qilish.

#### **5. Muhokama qilinadigan muammolar.**

Antropogen landshaftshunoslik tadqiqotlarda zamonaviy tadqiqot metodlardan foydalanish, antropogen landshaftlarning transformatsiyasi, modifikatsiyasi, dinamikasi va barqaror rivojlanish muammolari va yechimlari, antropogen landshaftlarning ijtimoiy va iqtisodiy muammolari va yechimlari, antropogen landshaftlarda suv muammolari va ulardan samarali foydalanish, antropogen landshaftlarning ekologik vaziyati tahlil va monitoring qilish kabi masalalar muhokama qilindi.

**6. O'tkaziladigan anjumanning Davlat ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi:** Anjuman respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Davlat ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirish, ilm-fan yo'nalishida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va yosh olimlarni sohaga jalb qilish hamda ularni sohaning yetuk mutaxassislari bilan aloqalarini yanada mustahkamlash borasida ahamiyatga egadir.

#### **7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.**

-Zamonaviy geografik tadqiqotlarni bajarishda, muammolarni hamkorlikda hal etishni yuqori darajaga ko'tarish va reytingi yuqori Moskva davlat universiteti, Oltoy davlat universiteti, Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universitet, Berlin universiteti tajribalarini mukammal o'rganish;

- amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarga doktorant, magistrant va iqtidorli talabalarni jalb etish;

- xalqaro hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida ilmiy tadqiqot institutlari Rossiya Fanlar Akademiyasi Suv va atrof-muhit muammolari instituti, A.N. Kostyakova nomidagi Butunrossiya gidrotexnika va melioratsiya ilmiy-tadqiqot instituti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ekologiya va yer osti boyliklaridan foydalanish muammolari instituti bilan hamkorlik ishlarini kuchaytirish.

-Moskva davlat universiteti bilan xamkorlikda "antropogen landshaftshunoslik" ilmiy markazini tashkil etish.

-Xorijiy olimlar bilan hamkorlikda suv resurslaridan samarali foydalanish, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy geografik muammolarni yechimiga bag'ishlangan xalqaro loyihalarni tayyorlash.

-Konferensiyada ishtirok etgan mahalliy va horijiy olimlar tomonidan keltirilgan tavsiyalar va ishlanmalarni ta'lim, fan va boshqaruv sohalarida qo'llash mexanizmlari amaliyotga tadbiq etish.

- Anjumanda ma'ruza qilingan quydagi mavzularda "O'zbekistonning adir mintaqasi landshaftlari o'zgarishini prognozlash", "Antropogen landshaftlarni tadqiq etishda geografik axborot tizimlaridan foydalanish", "Quyi Zarafshon landshaftlarining cho'llanish jarayonini masofadan zondlash usullari yordamida tadqiq etish" "Zarafshon daryosining antropogen omillar ta'sirida ifloslanishni tadqiq etish" mavzularda ilmiy loyihalar tayyorlash.

-professor-o'qituvchilar, doktorant va magistrantlarning ilmiy-ijodiy faolligini oshirish va tadqiqot davomida nufuzli universitetlar bilan hamjihatlikda fikr almashib faoliyat yuritishga sharoit yaratish.

- xalqaro ilmiy-amaliy anjuman miqyosida ilmiy-tadqiqotchilar uchun samarali tadbir tashkil etish maqsadida geografiya soha vakillarini ilmiy salohiyatini yaxshilashga erishish;

- Landshaftshunos olimlar ilmiy tadqiqotlari qamrovini kengaytirish, ilmiy ish natijalarini nashr etilishi va manbalar bazasi joriy etilishini ta'minlash.

Shuningdek anjumanda O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarda olib borilayotgan landshaftshunoslik tadqiqotlarning nazariy-uslubiy va amaliy ahamiyatga molik natijalari muhokama qilindi. Xorijiy mamlakat olimlari bilan ilmiy-amaliy tajriba almashinildi. Landshaftshunoslik va antropogen landshaftshunoslik tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asoslari takomillashtirildi. Shuningdek, tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni sog'lomlashtirish, suv va gidroenergetika resurslardan oqilona foydalanish, transport, turizm sohalarida innovatsion hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**8. Anjumanda yosh olimlar, mutaxassislar, doktorantlar, tayanch doktorantlar va magistrantlarning ishtirok etishi:** Anjumanda geografiya, ekologiya, geoekologiya fan sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar, yosh olimlar, doktorantlar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, umumiy o'rta va o'rta-maxsus, professional ta'lim muassasalari o'qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar olib borayotgan tadqiqotlarining natijalari, amaliyotga tadbiq etilayotgan ishlanmalari, ilg'or innovatsion g'oyalarini o'zida ifoda etgan ma'ruza, maqola va tezislari bilan ishtirok etishdi (ularning umumiy soni 106 ta, jumladan xorijdan 26 ta). Mazkur xalqaro anjumanga mahalliy mutaxassislar, sohalarning malakali kadrlari bilan bir qatorda xorijdan shu jumladan Germaniyadan 1 nafar, Rossiya Federatsiyasidan 30 nafar, Belorussiyadan 4 nafar, Tojikistondan 2 nafar, Qozog'istondan 3 nafar, Qirg'izistondan 5 nafar, Ruminiyadan 1 nafar, Hindistondan 4 nafar, Polshadan 2 nafar nufuzli oliy ta'lim muassasalari olimlar va soha mutaxassislari ishtirok etishdi.

**10. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki:** Anjuman ishida respublikamizda faoliyat yuritayotgan qator soha korxona va tashkilotlarining ishtiroki ta'minlandi, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti, "Kartografiya" ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi hamda soha oliy o'quv yurtlaridan soha mutaxassislari ishtirok etishdi.

2024 yil 17 may soat 10:00 da konferensiyaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya sining yalpi majlis kirish so'zida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor, Oliy Majlis Senati a'zosi Xalmuradov Rustam Ibragimovich, Samarqand viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha o'rinbosari To'xtayev Xusen Mirzayevich, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti direktori, geografiya fanlari doktori, professor Rafikov Vaxob Asamovich, Biznes va fan universiteti rektori, geografiya fanlari doktori, professor Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich nutq so'zladi.

Konferensiyaning yalpi majlisida jami 14 ta antropogen landshaftshunoslikning dolzarb mavzulariga bag'ishlangan ma'ruzlar tinglandi. Shular jumlasidan Moskva davlat universiteti professori, geografiya fanlari doktori **Viktoriya Bityukova** "Poytaxt shaharlari havosining avtotransport ta'sirida ifloslanishini rejalashtirish omillari (Markaziy Osiyo shaharlari misolida)", Tatariston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Yer osti boyliklaridan foydalanish, tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig'i, geografiya fanlari nomzodi **Marat Fasxutdinov** "Landshaftning antropogen transformatsiyasini fazoviy va vaqt tahlili" hamda Germaniyaning A.Gumboldt nomidagi Berlin universiteti dotsenti **Saveliy Kuzmin** "Muhofaza etiladigan rekreatsion madaniy landshaftlarning tabiiy, tarixiy va madaniy merosini saqlash va hududlarni barqaror rivojlantirish nuqtai nazaridan tadqiq etish" mavzusida va bir qator xorijiy olimlar o'zlarining ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Anjumanning ikkinchi qismi 18 may kuni “Antropogen landshaftshunoslik tadqiqotlarda GIS texnologiyalari va innovatsiyalarni qo‘llash”, “Antropogen landshaftlarni tadqiq etishda zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar”, “Global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan foydalanish va landshaftlar modernizatsiyasi”, “Atrof-muhit monitoringi va landshaftlar ekologiyasi” kabi sho‘balarda davom etdi.

Ushbu xalqaro konferentsiyada mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilayotgan antropogen landshaftshunoslik tadqiqotlarning nazariyasi, tajribalari, dolzarb muammolari va istiqbolli yo‘nalishlari muhokama qilindi. Iqtidorli yosh olimlarni antropogen landshaftshunoslikning istiqbolli ilmiy yo‘nalishlariga jalb qilish hamda xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga kelishildi.

Doktorantlar va magistrantlarning ilmiy tadqiqot ishlariga ilmiy rahbarlik qilish va qisqa muddatli stajirovkalarni tashkil qilishda Oltoy davlat universiteti bilan o‘zaro hamkorlik qilishga kelishildi.

Moskva davlat universiteti va Oltoy davlat universitetlarining tajribali professor o‘qituvchilarini 2024-2025 o‘quv yilida o‘quv jarayoniga jalb etish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Xorijiy olimlar bilan hamkorlikda suv resurslaridan samarali foydalanish, cho‘llanish, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy geografik muammolarni yechimiga bag‘ishlangan xalqaro loyihalarni tayyorlashga kelishildi.

2024-2025 o‘quv yilida hamkor universitetlar Oltoy davlat universiteti, Moskva davlat universiteti, O‘sh davlat universiteti, Chuvash davlat universiteti bilan hamkorlikda mahalliy va xorijiy talabalar uchun “Antropogen landshaftshunoslik” xalqaro yozgi maktabini tashkil etishga kelishildi.

Xalqaro hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida ilmiy tadqiqot institutlari Rossiya Fanlar Akademiyasi Suv va atrof-muhit muammolari instituti, A.N. Kostyakova nomidagi Butunrossiya gidrotexnika va melioratsiya ilmiy-tadqiqot instituti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ekologiya va yer osti boyliklaridan foydalanish muammolari instituti bilan hamkorlik ishlarini olib borishga kelishildi.

**“Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish”  
nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya fotolavhalari**





**Rafikov Vaxob Asamovich**, g.f.d., professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti direktori, (O'zbekiston)



**Goryachko Mariya Dmitriyevna**, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti dotsenti, (Rossiya)



**Kuzmin Saveliy Ignatievich**, g.f.n., A.Gumboldt nomidagi Berlin universiteti dotsenti, (Germaniya)



**Majayskiy Yuriy Anatoliyevich**, A.N. Kostyakova nomidagi Butunrossiya gidrotexnika va melioratsiya ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, professor, (Rossiya).

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektor**



**H.A.Xushvaqto**